

**GLOBAL MAKONDA TALABALARNING MA'NAVIY, MA'RIFIY
VA AXLOQIY DUNYOQARASHI: IJTIMOIY MOSLASHUVI VA
MA'NAVIY TARBIYASI**

Namangan davlat pedagogika institute Falsafa va tarix fanlar kafedrasи

Katta o'qituvchisi

Tillayev Bobomurod Abduvahhobovich

Aniq va tabiiy fanlar fakulteti Texnologik talim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Xakimova Xushroy

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunda dolzarb mavzu bo'lgan Global makonda talabalarning ma'naviy, ma'rifiy va axloqiy dunyoqarashi: ijtimoiy moslashuvi va ma'naviy tarbiyasi, pedagogik ta'lim jarayonida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ta'lim jarayoni, oliy ta'lim, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish, konsepsiya, pedagogik texnologiyalar.

Аннотация: В статье анализируются научно-теоретические основы подготовки студентов к организации духовно-просветительской работы в процессе педагогического образования, что является актуальной на сегодняшний день темой: духовно-просветительское и нравственное мировоззрение студентов в глобальном пространстве: социальная адаптация и духовное воспитание.

Ключевые слова: образовательный процесс, высшее образование, организация духовно-просветительской работы, концепция, педагогические технологии.

Abstract: The article analyzes the scientific and theoretical foundations of the spiritual, educational and moral worldview of students in the Global space, which is a topical issue today: social adaptation and spiritual education, preparation for the organization of spiritual and educational work in the process of pedagogical

education.

Keywords: *educational process, higher education, organization of spiritual and educational work, concept, pedagogical technologies.*

Jahon oliy ta'lif tizimida talabalarni kasbiy ijtimoiylashtirish, ma'naviy-axloqiy va mafkuraviy kompetentligini rivojlantirish, ijtimoiy faolligi va tashabbuskorligini tarbiyalash metodikasini takomillashtirish, mafkuraviy immunitetini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Globallashuv jarayonining chuqurlashib borishi natijasida inson uchun xavfli bo'lgan turli xil noan'anaviy tahdidlar yuzaga kelmoqda. Bulardan eng xavflilari insonlarning ruhiyatiga ta'sir o'tkazish orqali millatlarning qadriyatlari va turmush tarzini izdan chiqarishga qaratilgan axloq-odob, oila va jamiyat hayotida jiddiy ta'sir ko'rsatadigan ma'naviy tahdidlar hisoblanadi. Ma'naviy tahdidlar shaxs axloqiy ongida salbiy tushunchalar, tuyg'ular, xususiyatlar va sifatlarni hosil qiluvchi illatlar majmuidir. Chunki tahdid so'zi "xavf-xatar, xuruj va buzish" ma'nolarini anglatadi. Shu ma'noda ma'naviy tahidlarni shaxsni aqliy va axloqiy jihatdan buzishga qaratilgan maqsadli xurujlar deyish mumkin. Ma'naviy tahdidlardan maqsad, birinchidan, shaxsning ma'naviy-axloqiy olamini buzish; ikkinchidan, o'z vatani va jamiyatiga nisbatan yovuzlik fikrini uyg'otish; uchinchidan, milliy axloqiy qadriyatlarni aynitish; to'rtinchidan, o'zgalar jamiyatini ideal deb bilish ko'nikmasini hosil qilish; beshinchidan, zararli odatlarga xuruj qo'yishdir. Diqqat qilsak, ma'naviy tahidlarning barcha turi nosog'lom turmush tarzi bilan bog'liqligiga va u mafkuraviy nuqtayi nazardan eng xavfli omil ekanligiga amin bo'lamiz.

Oliy ta'lif muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, yoshlarning intellektual salohiyati, tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalq manfaatlari uchun xizmat qilish tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlod sifatida tarbiyalashga

qaratilgan talaba-yoshlarning ma'naviy-axloqiy ongini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish borasida Respublikamiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miramonovich hozirgi O'zbekiston Respublikasida oliv ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliv ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish doir qarorlar qabul qilmoqda.

Globallashuvning milliy ma'naviyatga ko'rsatayotgan ijobiy ta'sirlari to'g'risida bildirilgan fikrlarni umumlashtirib, quyidagicha xulosa qilish mumkin:

– madaniy aloqalar va munosabatlarning globallashuvi bir hududda yangi madaniy va ma'naviy qadriyatlarni, san'at turlarining vujudga kelishiga sabab bo'ladi, bu esa milliy ma'naviyat tarkibini yanada boyib borishiga olib keladi;

– iqtisodiy munosabatlarning globallashuvi esa mamlakatlar moddiy hayotini yaxshilashga keng yo'llar ochib beradi hamda fuqarolar farovonligining ta'minlanishiga imkon beradi;

– fan va texnika sohasining globallashuvi milliy ma'naviyatning asosi bo'lmish milliy intellektual salohiyatni kuchaytiradi;

– siyosiy-mafkuraviy sohalarning globallashuvi umumjahon ma'naviy muhitning rivojlanishiga zamin yaratadi, bu esa milliy ma'naviyatning yanada takomillashishiga asos bo'ladi.

Shu bilan bir qatorda, globallashuv jarayonlarining milliy ma'naviyatga ko'rsatayotgan salbiy ta'siri xususida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin.

– demografik ko'chishlarning ayrim hududlarda haddan ziyod oshib ketishi ma'naviy ta'sirlar oqimining ham oshishiga olib keladi, bu holat shu hududdagi milliy ma'naviyatga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi;

– umumjahon miqyosida ma'naviy-madaniy ne'matlarga ehtiyoj rivojlangan davlatlar talabiga ko'ra shakllanishi milliy ma'naviyatga bir qutbli ta'sirini

kuchaytiradi;

Yangi O'zbekiston sharoitida mafkuramizning tub ma'no-mazmunini belgilab beradigan ana shu maqsad bizning hayotimiz, ong-u tafakkurimizga singib, dunyoqarashimiz, amaliy harakatlarimizning asosiga aylandi va zamongamos tarzda o'zgarib bormoqda. Shu yo'lida yoshlarda mafkuraning mazmun mohiyatini to'liq shakllantirib, tarixiy ildizlarini asoslab, dunyoqarashni rivojlantirish ta'lim-tarbiyada eng muhim vazifaga aylanmog'i kerak. Ta'lim jaroyonining ajralmas bir qismi bu ma'naviy-ma'rify ishlar, tadbirlar, qadriyatlar sanaladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish ham dolzarb muammo hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ta'lim-tarbiya jarayonini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish, ma'naviy-ma'rify ishlar, dars, darsdan tashqari mashg'ulotlarni yangicha ijodiy asosda tashkil qilish zarur. Eng muhimi har bir pedagog, rahbar ta'limni yangi metodologik asosda tashkil qilishning tub mohiyatini tushunmog'i lozim. Ta'lim islohotimizda jahon ta'limi rivojlanishining ijobiy xususiyatlarini ta'limni amaliy - inson hayoti, shaxsga yo'nalganlik tajribasini va uni rivojlantirishning muhim vositasi zamonaviy pedagogik texnologiyalar ekanligi asosida uni rivojlanishi asosiy yo'nalishlarini belgilash muhim hisoblanadi. Islohot oqibatida ta'lim tizimimiz rivojini jahonga yo'naltirish - yana juda bir muhim vazifa - ta'lim rivojini bozor munosabatlariga moslashtirishning tajribasidan unumli foydalanishdir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda ma'naviy marifiy ishlar jarayonida talabalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish texnologiyalardan bo'lajak o'qituvchi o'z imkoniyati, ta'lim mazmuni, o'quvchilar bilim saviyasi va tajribasini hisobga olib tanlashi kerak. Shundagina har qanday texnologiya yuqorida keltirilgan fikrlarni amalga oshirish vositasi bo'la oladi.

Globallashuv sharoitida ma'naviy-axloqiy tahdidlarga qarshi kurashda

ta'lism-tarbiya muassasalari faoliyati tizimida bosh harakatdagi shaxs, pedagog, o'z shaxsiy potensiali va mahoratini ishga solgan holda talabalar bilan hamkorlikda ijodiy va hayotiy faoliyatini maqsadga muvofiq tarzda tashkil etsa, o'rganuvchilar uning barcha shakl va ko'rinishlarida real subyektga aylanadi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston respublikasi oliv ta'lism tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi. Toshkent sh. 2. 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lism to'g'risida"gi qonuni -T.: "O'zbekiston", 2020 yil 23 sentabr. 3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi 2017 yil 5 iyuldag PF-5106 son Farmoni 4. O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021 yil 19 yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishga bag'ishlangan videoelektor yig'ilishidagi nuqtisi (<https://www.gazeta.uz>) 5. Ortiqov, O. R. (2021). GLOBALLASHUV JARAYONIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDА MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI. Scientific progress, 1(5), 160-165.